

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«Qishloq xo'jalik gidrotexnik melioratsiyasi» kafedrasi

«Melioratsiya va yerlarni rekultivatsiyalash» fanidan

amaliy mash g'ulotlarni o'tkazish

bo'yicha

METODIK KO'RSATMA

TOSHKENT - 2013

Ushbu metodik ko'rsatma institut Ilmiy-metodik kengashining 10-yanvar 2013 yilda bo'lib o'tgan 4-sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Ushbu metodik ko'rsatmada yer yuzasini tekislash turlari bo'yicha tushunchalar berilgan bo'lib, bakalavriat yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

I.A.Begmatov, dotsent

Sh.Ch.Botirov, dotsent

Taqrizchilar:

"GMTF" kafedrasi mudiri, t.f.d., professor F.A.Baraev

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Jamg'armasini boshg'arish departamentining "Meliorasiya ishlarini texnik kuzatish" bo'limi bosh mutaxassisi S.K.Musaev

Kirish

Sug‘oriladigan maydonining yuzasini tekislashni loyihalash mashqi «Yer tuzish va yer kadastro» fakulteti bakalavr talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, «MER» fani bo‘yicha egallagan bilimlarini mustahkamlashga mo‘ljallangan. Metodik ko‘rsatmada sug‘oriladigan yerlarni tekislashni loyihalash asoslari ko‘rilib, bunda hisoblashning umumiyligi metodikati va tekislashning turlari ishlab chiqiladi. Yer tekislashning qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligiga va sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatiga ta’siri to‘g‘risida ba’zi bir ma’lumotlar keltirilgan. Sug‘orish turi va texnikasini tekislash usulini tanlash masalalari ko‘rilgan.

Ko‘rsatmada yer yuzasini tekislashni loyihalashning turli xil usullari bo‘yicha aniq misollar keltirilgan.

Topshiriq berish va tekislash bo‘yicha topshiriqni bajarish

Har bir talabaga alohida topshiriq beriladi va unda quyidagi boshlang‘ich ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

1. Qabul qilingan qishloq xo‘jalik ekinlarining yer ustidan sug‘orish texnikasi va uning elementlarining ahamiyati;
2. Sug‘oriladigan maydonni tekislash uchun loyihaviy yuzani berish;
3. Topshiriq blankasida sug‘oriladigan maydonining rejasi to‘liq yoki qisman 1:1000 masshtabda, gorizontallar oralig‘i esa 0,1 yoki 0,2 metr oralig‘ida beriladi.

Mashqni bajarishda talaba quyidagi ishlarni bajarishi kerak.

1. Loyihalashtirilayotgan maydonning «a» tomoni bo‘yicha kvadratlarga bo‘lib chiqish;
2. Ushbu elementar kvadratlar markazida yerning loyihaviy belgilari (balandliklari) ni aniqlash;
3. Barcha kvadratlarda yuzanining loyihaviy va ishchi balandliklarini loyihalash;
4. Tuproq qirqmasi va to‘kmasi hajmini hisoblash;
5. Tekislashning ishchi sxemasi (chizmasi) ni ishlab chiqish (tuzish).


O‘qituvchi, talabalarga topshiriqni tarqatgandan so‘ng uni bajarish tartibi va ba’zi elementlarini yechish uslubi bo‘yicha tushunchalar berib, kerakli maslahatlar ko‘rsatadi.

Umumiylumotlar

Sug‘oriladigan maydonlarning notekis relefi sug‘orish tizimlarini qurishda va asosan yer ustidan sug‘orishni olib borishda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Tekislanmagan yoki qoniqarsiz tekislangan maydonlarda sug‘orishni olib borish birinchidan sug‘orishga beriladigan suvning isrofgarchiligiga, ya’ni sizot suvlarining sathini ko‘tarishga va ikkinchidan katta maydonda notekis namlanishga olib keladi. Bundan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish uchun sug‘oriladigan maydonlarni o‘zlashtirish, hamda katta hajmda tuproq ishlarini bajarishda mehnat talab qiluvchi yer tekislash ishlarini olib borgandagina erishiladi.

Sug‘orish tarmoqlarini qurish bilan birga olib boriladigan tekislashning ahamiyati shundaki, bunda sifatli sug‘orishga to‘siqlik qiluvchi relyef va mikroreleflar notekisligi yo‘qotiladi.

Tekislash ishlarini olib borish va hosil qilinadigan yuza bo‘yicha tekislash 2 - turga bo‘linadi: 1) qisman; 2) kapital (to‘liq). Qisman tekislashda sug‘orish maydoni relyefining umumiy ko‘rinishi o‘zgarmaydi, balki ba’zi bir yaqqol ko‘rinuvchi notekisliklar va boshqa chiziqli to‘siqlar joyida tekislash yo‘li bilan yoki tuproqni ba’zi balandliklardan pastliklarga tashlash orqali tekislanadi (1 - rasm).



1 rasm. Qisman tekislash sxemasi.

Kapital tekislashda esa sug‘orish maydonida yangi sug‘orish usuliga mos keluvchi yuza hosil qilinadi. Qachonki qisman tekislash samarali sug‘orish olib borishni ta’milamaydigan hollarda, kapital tekislash qo‘llaniladi.

Kapital tekislash loyihasini tuzishda quyidagi asosiy talablarni e'tiborga olish kerak:

1. Sug'oriladigan maydonning loyihaviy yuzasi sug'orish texnikasi talablariga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi barcha jarayonlarni mexanizatsiyalash talablariga javob berishi kerak.
2. Tuproq ishlarining hajmi kam bo'lishi, tuproq unumdar qatlaming buzilishini kamaytirish zarur. Tekislash jarayonida katta (> 40 sm) qirqma va yirik (> 60 sm) bo'lgan to'kmalarni mumkin qadar qo'llamaslik kerak. Tekislash ishlari tuproqning optimal namligi chegaraviy dala nam sig'imiga nisbatan 18 – 20 % bo'lganda olib borish samaralidir.
3. Tekislash sxemasi qabul qilingan qurilish ishlarini ishlab chiqish bilan bog'liq holda olib borilishi kerak.

O'rta va kuchli sho'rangan kam nishabli yerlarda kapital tekislash ishlarini sug'orishgacha olib borish zarurdir.

Sug'oriladigan maydonini tekislashda ishchi sxemani ishlab chiqish

Xo'jaliklarning sug'oriladigan yerlarini yuzasini tekislash ishlari oldindan tuzilgan har bir maydon uchun yerlarni tekislash ishchi sxemasi bo'yicha olib boriladi.


Sug'oriladigan maydonini kapital tekislash ishchi sxemasi quyidagilardan iborat:

- 1). Sug'oriladigan maydonining qisman yoki kapital tekislash chegaralari ko'rsatilgan sxemasi va tuproq ishlari hajmining yig'ma jadvali keltiriladi;
- 2). Qisman tekislanadigan va chiziqli to'g'irlanuvchi to'siqlar ko'rsatilgan sxema;
- 3). Kapital tekislanadigan maydonining rejasi 1:1000 yoki 1:2000 mashtabda, ishchi balandliklari va muvaqqat tarmoqlar, o'q ariqlar, kesish chegaralari ko'rsatilgan holdagi sxemasi;
- 4). Har bir tekislash maydoni bo'yicha tekislash birliklari ko'rsatilgan ishchi sxema.


Sug'oriladigan maydonning yuzasiga qo'yiladagan talablardan va qabul qilinadigan sug'orish texnikasidan kelib chiqib loyihaviy yuza tekislashni 3 turga bo'lish mumkin.

- 1) Gorizontal tekislash – bu sho‘r yuvish va sholini sug‘orish uchun.
- 2) Qiya tekislash – bunda tekislanadigan yuza egat uzunligi bo‘yicha bir xil tekislanadi hamda egat orqali va bostirib sug‘oriladigan yerlarda qo‘llaniladi.
- 3) Topografik yuza bo‘yicha tekislash – bunda tekislanadigan yuza mavjud yuzaga yakin holda tekislanadi va turli tekisliklar bo‘yicha turli nishablikdagi tekisliklar sistemasini tashkil qiladi. (2- rasm).


a) Gorizontal tekislash



b) Qiya tekislash



v) Topografik yuza bo‘yicha tekislash




2-rasm. Loyihaviy tekislashlar


Gorizontal yuza bo'yicha tekislash

Gorizontal yuza bo'yicha tekislashda sug'oriladigan maydonini gorizontal holatga keltirish tushuniladi. Bunda sug'oriladigan maydonining yuzasi zinasimon gorizontal yuzalardan iborat bo'ladi. (3 - rasm).

Maydon rejasi



Sug'oriladigan maydon o'qi bo'yicha bo'ylama profil



3 – rasm. Gorizontal yuza bo‘yicha tekislash


Katta nishablikka ega bo‘lgan yerlarda gorizontal yuza bo‘yicha tekislash katta hajmdagi tuproq ishlarni bajarishga hamda katta o‘lchamdagি qirqma va to‘kma ishlarni olib borishga olib keladi. Gorizontal yuza bo‘yicha tekislash loyihasi quyidagicha bajarilishi mumkin:

- A. Gorizontallarni qo‘llash usuli orqali, ya’ni tekislanadigan maydon yuzasi gorizontallar orqali berilganda.
- B. Nuqtalar usuli orqali, ya’ni tekislanadigan maydon yuzasi cheklarga bo‘lingan kvadratlar markazlarining balandliklari orqali berilganda.

Birinchi usul bo‘yicha masala quyidagicha yechiladi:

- Tekislashning nolinchи tekisligi beriladi, ya’ni gorizontal tekislik qabul qilinadi. Rejasi metr bilan gorizontallar va cheklar chegarasi orasidagi masofa eng yuqori balandlikka ega bo‘lgan gorizontallarni o‘lhash orqali olib boriladi. Gorizontal tekislash bo‘yicha maydonni tekislash grafigi tuziladi, bunda abtsissa o‘qi bo‘yicha maydonlar m^2 da qo‘yiladi. Ordinata o‘qi bo‘yicha esa ushbu gorizontal tekislikning balandligi qo‘yiladi. (4 -rasm).

Chek rejasi



$$V = \Delta h [0,75(\omega_1 + \omega_2 + \Omega) + \omega_{n-1}]$$

$$R_{\circ} = R + \frac{V}{\Omega}$$

$$W_{\text{kirk}} = \Delta h [0,75\omega_1 + \omega_2 + \dots + 0,5\omega_m] + W_{\text{rux.e}}$$


$$W_{\text{rux.e}} = \frac{\omega_m + \omega_x}{2} \cdot h^1; h^1 = H_m - R_{\circ}$$

R-taqqoslovchi tekislik balandligi;

R₀-loyihaviy tekislik balandligi;

$$W_{\text{tukma}} = \Omega(R_{\circ} - R) - (V - W_{\text{rbhr}})$$

$$\Omega - \text{÷chek0 maydoni, m}^2$$



4-rasm. Maydonlarni taqsimlanish grafigi

- Nolinchi gorizontallar orasidagi masofa, m;

$$V = \Delta h [0,75(w_1 + w_n + \Omega) + w_2 + w_3 + \dots + w_{n-1}] \dots \quad (1)$$

Bu yerda: Δh - gorizontallar orasidagi masofa, m;

n - chekdagi gorizontallar soni;

$w_{1, 2, \dots, n}$ - gorizontal va chekning chegarasi orasida joylashgan maydon yuzasi, m^2 ;

- chek yuzasi, m^2 :

Gorizontal yuzanining loyihaviy balandligini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$R_0 = R + \frac{V}{\Omega} \quad (2)$$

Bu yerda: R_0 - loyihaviy gorizontal yuza balandligi;

R - tekislanuvchi nolinchi gorizontal tekislik balandligi.

Loyihaviy gorizontal yuza balandligi 0,1 sm aniqlikgacha aniqlanib, keyin 1 sm gacha yaxlitlanadi. Qirqma tuproq hajmi, ya'ni loyihaviy tekislikdan yuqorida joylashgan tuproq hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$W_{\text{kirk}} = \Delta h [0,75w_1 + w_2 + \dots + 0,5w_m] + W_{\text{rux.et}} \dots \quad (3)$$

Bu yerda: w_m - chek chegarasi va gorizontal orasidagi maydon.

$w_{\text{rux.et}} - h'$ - balandlikka ega bo'lgan qo'shimcha hajm. Quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$W_{\text{rux.et.}} = \frac{w_m + w_l}{2} h \quad (4)$$

Bu yerda: w_x - chek chegarasi va loyihaviy gorizontal orasidagi yuza, maydonni taqsimlash grafigi (4 - rasm) dan olinadi.

h' - loyihaviy balandlik « R_o » va gorizontal « m » balandligi farqi, ya'ni $h^I = H_m - R_o$

Qirqma hajmini bilgan holda to'kma hajmi quyidagicha aniqlanadi.

$$W_{tuk} = \Omega(R_0 - R) - (V - W_{kirkma}) \quad (5)$$

Hisob – kitoblar to'g'riligi, qirqma va to'kma hajmlarini taqqoslash orqali tekshiriladi, bunda 5 % gacha xatolikka ruxsat etiladi.

Tekislash ishlarining o'rtacha hajmi quyidagicha hisoblanadi, ya'ni

$$W = \frac{W_{kirk} + W_{tukma}}{2}; \text{ m}^3 \quad (6)$$

Gorizontal tekislikning loyihaviy balandligi chek rejasiga tushiriladi va shu bilan ikki maydonga bo'linadi – ya'ni qirqma va to'kma maydoncha. Ushbu maydonlarning og'irlik markazlari topiladi, ushbu markazlar orasidagi tekislashdagi tuproqni surish o'rtacha uzunligi (L_{ur}) masofasi aniqlanadi.

Ikkinci holatda esa, qachonki maydon yuzasi kvadratlar markazlari balandliklari orqali berilganda, chekni tekislash loyihasi gorizontal hajmi va uni surish uzunligi quyidagicha olib boriladi.

Relefning qiyinligiga qarab, odatda chek tomonlari $a = 10 \div 20$ sm li (5 – rasmga qarang) kvadratlarga bo'linadi.

Chek gorizontal tekisligining loyihaviy balandligini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$R_0^I = \frac{\Sigma H}{n} \quad (7)$$

Bu yerda: H - berilgan chekdagi barcha kvadratlar (nuqtalar) markazlari balandliklarining yig'indisi.

n - chekdagi nuqtalar soni.

R_o – balandligi santimetrning o‘ndan bir bo‘lagicha aniqlikda hisoblanadi, loyihaviy balandlik esa 1 sm gacha aniqlikda yaxlitlanadi.

Loyihaviy gorizontal tekislik balandligi $\langle R_o \rangle$ va barcha kvadratlar markazlari hamda yer usti balandliklari bo‘yicha ishchi balandliklarni hisoblaymiz, ya’ni har bir kvadratdagi qirqma yoki to‘kma kattaliklari (balandliklari) quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$h_i = \pm(R_0 - H_i) \quad (8)$$

bu yerda: $h_i = \langle i \rangle$ nuqtadagi ishchi balandlik, agar minus (-) ishorani ko‘rsatsa qirqmani, plus (+) ishorani ko‘rsatganda esa to‘kmani bildiradi.

H_i - Kvadrat markazidagi yer usti balandligi.

Elementar kvadratlar maydonidagi qirqma yoki to‘kma hajmi quyidagi bog‘lanish orqali hisoblanadi.

$$w_i = 0,01 \cdot w_0 \cdot h_i \quad (9)$$

bunda: w_0 - elementar kvadrat yuzasi $w_0 = a^2$;

Qirqma yoki to‘kmaning umumiy hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$W_{\text{kirk}} = \sum h_{\text{kirk}} \cdot \omega_0; \quad W_{\text{tuk}} = \sum h_{\text{tuk}} \cdot \omega_0;$$

Qirqma bilan to‘kma umumiy hajmlari orasidagi ruxsat etilgan farq (chekinish) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadigan qiymatdan katta bo‘lishi kerak emas.

$$W_{\text{rux.et}} = \Omega(R_0 - R_0^1) \quad (10)$$

bunda: Ω - chek maydoni, m^2 ;

R_o – loyihaviy yuzaning yaxlitlanmagan balandligi.

Agar ushbu shart bajarilsa, tekislash ishlarining hajmi quyidagicha bo‘ladi:

$$W = \frac{W_{\text{kirk}} + W_{\text{tukma}}}{2} : \text{m}^3 \quad (11)$$

Tekislash ishlarining nisbiy hajmi quyidagi formuladan topiladi:

$$W_{\text{nis}} = \frac{W \cdot 10^4}{\Omega} : \text{m}^3/\text{ga} \quad (12)$$


Shundan so'ng chekda tekislash sxemasi tuziladi, buning uchun chek qirqma, to'kma maydoni va nolinchisi shartli belgilar bilan konturlanadi. Kvadratlarning nolinchisi ishlar maydonlariga qo'llanilayotgan mexanizmlar bajarayotgan ishlar aniqligidan kichik bo'lgan qirqma yoki to'kma kiradi. Kichik quvvatli skreperlar uchun + 3 sm, yirikroq mexanizmlarga esa + 7 sm gacha.

So'ng chekda tekislash birliklari belgilanadi, ya'ni taxminan bir xil qirqma va to'kma hajmiga ega bo'lgan maydonlar ajratiladi, ajratilgan tekislanuvchi birlik maydonlarining og'irlik markazlari aniqlanadi va ushbu og'irlik markazlari orasidagi masofa tuproqni surish uzoqligini bildiradi.

Tuproqning o'rtachalashtirilgan surish uzoqligi quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$l = \frac{W_1 \cdot l_1 + W_2 \cdot l_2 + \dots + W_n \cdot l_n}{\Sigma W} \quad (13)$$

Barcha hisoblar va grafik materiallar vatman qog'ozga tushiriladi. Ishni rasmiylashtirish namunasi 5 – rasmida ko'rsatilgan.



Chek rejasi

M 1:1000

$$R'_\theta = \frac{\Sigma H}{n} = \frac{1671,4}{25} = 66,856; \quad R_\theta = 66,86;$$

$$W_{\text{cpesku}} = \Sigma h_{\text{cp}} \cdot \frac{\omega_0}{100} = 2,355 \cdot \frac{400}{100} = 9,42 M^3;$$


$$W = \frac{W_{\text{mod}} + W_{\text{ep}}}{2} = 19,28 \text{ m}^3; \quad W_{y\partial} = \frac{W \cdot 10^4}{Q} = \frac{19,28 \cdot 10^4}{10000} = 19,28 \text{ m}^3 / \text{za}$$

$$l_{cp.} = \frac{l_1 \cdot W_1 + l_2 \cdot W_2 + \dots + l_n \cdot W_n}{W_1 + W_2 + \dots + W_n} = \frac{41 \cdot 308 + 53 \cdot 308 + 22 \cdot 156 + 28 \cdot 156}{308 + 308 + 156 + 156} = 39,6\text{m};$$

5-rasm. Chek xaritasi.

Hisoblash jadvali						
ΣH	R_0	$h, [m]$	$M, [m^3]$	$W, [m^3]$		
		-	+	-	+	
1671,4	334,030	334,395	333	334,09	335,215	
				$R'_0=66,856$	66,86	
2,465	0,975	0,375	0,630	0,365	0,120	-
2,355	0,705	0,460	-	0,155	1,035	+
986	390	150	252	146	48	-
942	282				62	414

Hisob jadvali.



Tekslashning ishchi sxemasi M 1:1000

$$l_1=41\text{ m}; \quad l_2=53\text{ m};$$

- түкма

- тўкма

- нулди иш

$$l_1=41 \text{ M}, \quad l_2=53 \text{ M}$$

$$l_3=22\text{ }M; \quad l_4=28\text{ }M;$$

$$W_1=308 \text{ m}^3; \quad W_2=308 \text{ m}^3;$$

$$W_3=156 \text{ m}^3; \quad W_4=156 \text{ m}^3;$$

Tekislikning ishchi xaritasi.

Egatlab va bostirib sug‘oriladigan maydonining yuzasini tekislash

Bo‘ylama hamda ko‘ndalang yo‘nalish bo‘yicha ma’lum nishablikka ega bo‘lgan dala yuzasini tekislashda, qabul qilingan sug‘orish texnikasi yuzasi talablarini hisobga olish kerak.

Kichik va o‘rtacha nishablik yerlarda egatlab yoki bostirib sug‘orish eng katta nishablik yo‘nalishi bo‘yicha, ya’ni gorizontallarga perpendikulyar holatda olib boriladi. Shu sababli sug‘oriladigan dalaning bo‘ylama qirqimiga quyiladigan talab egatlab sug‘orish uchun ham, bostirib sug‘orish uchun ham bir xildir va asosan quyidagiga yo‘naltirilgan: xaritada, egat yoki polosa uzunligi bo‘yicha teskari yoki nolinchi nishabliksiz bir xil nishabliklarni hosil qilish.

Egatlab yoki bostirib sug‘orishda sug‘oriladigan maydonining ko‘ndalang qirqimiga qo‘yiladigan talab turlichadir. Agarda, egatlab sug‘orishda ko‘ndalang nishablik ancha katta (0,003 gacha) bo‘lsa, bostirib sug‘orishda esa ko‘ndalang nishablik polosa eni bo‘yicha suvning tekis shimalishini ta’minalash uchun deyarli nolga yaqin bo‘lishi kerak.

Egatlab yoki bostirib sug‘orishni olib borishda eng maqbul yuza bo‘lib, qiya tekislik hisoblanadi, bunda nishablik tabiiy nishablikka yaqinlashtiriladi. Ammo qiyin relyef sharoitida sug‘oriladigan maydon yuzasida bunday yuzani hosil qilish katta hajmdagi tuproq ishlarini olib borish bilan bog‘liqdir. Qiya tekislik bo‘yicha tekislashda tuproq ishlari hajmini kamaytirish maqsadida balans maydonining o‘lchamlari nisbatan kamaytiriladi va odatda muvaqqat ariqdan sug‘oriladigan maydonga teng qilib olinadi.

Sug‘oriladigan maydonini qiya tekislik bo‘yicha tekislash

Yuqorida aytib o‘tilganidek, qiya tekislik, sug‘oriladigan maydon maydonida yoki ikki muvaqqat ariq oralig‘ida ham bo‘ylama ham ko‘ndalang yo‘nalishlarda tabiiy nishablikka yaqinlashtirgan holda tashkil etiladi. Loyihalash quyidagi tartibda olib boriladi: 1:1000 mashtabdagi tekislanuvchi maydon tomonlari 20x20 yoki 10x10 M li kvadratlarga bo‘linadi (6 - rasm).

YEr ustining o‘rtacha balandligi quyidagi formuladan hisoblanib $H_{ur} = \frac{\Sigma H}{n}$,

0,1 sm aniqlikda va keyinchalik 1 sm gacha yaxlitlanadi, ushbu balandlik loyihaviy qiya tekislik markaz balandligi (R_0) deb qabul qilinadi.

Qolgan loyihaviy qiya tekisliklar kvadratlari markazi balandligini aniqlash qirqma va to‘kma ishlar balansini bog‘lash sharti orqali olib boriladi. Bog‘lash quyidagicha olib boriladi. Yuqori (chap) va quyi (ung) ko‘ndalanglar yer ustining o‘rtacha balandliklari aniqlanadi:

$$H_{ur}^{yu.chap} = \frac{\Sigma H_{ch.us}^{yu.ch}}{n}; \quad H_{ur}^{kuyi.ung} = \frac{\Sigma H_{er.ust}^{kuyi.ung}}{n}; \quad (14)$$

bu yerda: $\Sigma H_{er.usti}^{yukori.chap}$ - yuqori (yoki chap) ko‘ndalang nuqtalari balandliklari yig‘indisi;

$\Sigma H_{er.usti}^{yukori.chap}$ - quyi (yoki o‘ng) ko‘ndalang nuqtalar balandliklari yig‘indisi;


n – kundalangdagi nuqtalar soni.

Yuqori (chap) yoki quyi (o‘ng) ko‘ndalang markazidagi qiya tekislikning loyihaviy balandligi quyidagi shartdan topiladi.

$$H_{ur}^{kuyi.chap} + H_{ur}^{yu.chap} = 2R_0 \quad \text{yoki} \quad H_{ur} + H_{ur} = 2R_0 \dots \quad (15)$$

Agarda ushbu tengliklar bajarilmasa, tuzatish topiladi
 $\Delta h = \pm [2R_0 - (H_{ur}^{yukori.chap} + H_{ur}^{kuyi.ung})]$ va ko‘ndalanglarning loyihaviy balandliklari $\pm \frac{\Delta h}{2}$,
ya’ni $H_{tugirlash}^{yukori.chap} = H_{ur}^{yukori.chap} \pm \frac{\Delta h}{2}$ qiymatga to‘g‘rilanadi; (16)

Chek rejasi
M 1:1000



$$R_o = \frac{1662,57}{25} = 66,50; \quad H_{cp}^{a,n.} = 66,49; \quad H_{ep}^{a,n.} = 66,79; \quad 2R_o = 2 \cdot 66,50 = 133;$$

$$H_{cp}^{a,n.} + H_{ep}^{a,n.} = 133,28; \quad \Delta h = 133,0 - 133,28 = -0,28 \text{ см};$$

$$H_{np}^{a,n.} = H_{cp}^{a,n.} + \frac{3}{2} = 66,37; \quad H_{ep}^{a,n.} = H_{cp}^{a,n.} + \frac{3}{2} = 66,66;$$

$$H_{cp}^{n,n.} = 66,38; \quad H_{cp}^{n,n.} = 66,62; \quad H_{cp}^{n,n.} + H_{cp}^{n,n.} = 133; \quad \Delta h = 0;$$

$$H_{np}^{n,n.} = 66,38; \quad H_{np}^{n,n.} = 66,62; \quad W = \frac{1136 + 1188}{2} = 1162 \text{ м}^3;$$


$$W_{yo.} = \frac{W}{\omega} = \frac{1162}{400} = 2,9 \text{ м}^3; \quad l_{cp.} = \frac{l_1 \cdot W_1 + l_2 \cdot W_2 + l_3 \cdot W_3 + l_4 \cdot W_4}{W_1 + W_2 + W_3 + W_4} = 36,11 \text{ м};$$

Hisoblash jadvali


ΣН	H_{cp}	H_{np}		Δh, [м]		W, [м³]	
				-	+	-	+
332,49	331,77	331,61	332,75	1,05	-0,40	420	160
66,49	66,35	66,32	66,55	0,34	-0,72	136	288
66,50				2,84	0,25	480	224
1662,57	333,95	66,79	1,20	0,40	0,89	1136	1188

Tekslashning ishchi sxemasi

M 1:1000



ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР



- түкма



- қирқишиш



- нусли иш

$l_1 = 50 \text{ м}; \quad l_2 = 30 \text{ м};$

$l_3 = 20 \text{ м}; \quad l_4 = 37 \text{ м};$

$W_1 = 105 \text{ м}^3; \quad W_2 = 34 \text{ м}^3;$

$W_3 = 84 \text{ м}^3; \quad W_4 = 117 \text{ м}^3;$

6-rasm. Qiya tekislik bo'yicha tekislash.

Qolgan nuqtalarning loyihaviy balandliklari eng chetki nuqtalari orasidagi nishablik orqali topiladi.

Ishchi balandliklari (qirqma va to'kma qiymatlari) quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$h = \pm (H_{\text{loy}} - H_{\text{er usti}})$$

Elementar kvadrat maydonidagi ish hajmi $W_i = 0,01 \cdot \omega_0 \cdot h_i$ formuladan umumiylashtiriladi esa quyidagicha topiladi:

$$W = \frac{(\Sigma h_{\text{kirk}} + \Sigma h) \cdot \omega_0}{200}; \text{m}^3 \quad (17)$$

Tekislash ishlarining nisbiy hajmi aniqlanadi:

$$W_{\text{nisbiy}} = \frac{W \cdot 10^4}{\Omega}; \text{m}^3/\text{ga}$$

bunda: – tekislanuvchi maydon maydoni, m^2 ;

Barcha hisoblar jadvalga tushiriladi (6-rasmda keltirilgan). Tekislash sxemasi esa nuqtalar orqali gorizontal tekislik bo'yicha tekislash loyihasi kabi olib boriladi.

Topografik yuza bo'yicha tekislash

Ushbu tekislash usulini mavjud gorizontallarni to'g'irlash yoki izoliniyalar (maydon rejasida bir xil xususiyatga ega bo'lgan nuqtalarni ko'rsatuvchi uzluksiz egri chiziqlar) usuli yordamida olib borish mumkin, bunda rejada sug'orishga normal yo'nalangan yangi (loyihaviy) gorizontallar yaratiladi.

Topografik yuza bo'yicha izoliniyalar usuli bo'yicha tekislash quyidagi tarkibda olib boriladi:

Loyihalashtirilayotgan sug‘orish maydoni rejasida 1:1000 masshtabda, gorizontallar ko‘rsatilgan relyefda bir – biriga teng taxminan 10 –20 m o‘zaro parallel bo‘lgan izoliniyalar o‘tkaziladi va bu izoliniyalar tashkil etilayotgan yuza loyihaviy gorizontallari deb qabul qilinadi.

Izoliniyalarni sug‘orish yo‘nalishiga normal holatda o‘tkazish zarurdir. SHundan so‘ng maydon bo‘ylab bir xil masofada (10 –20 m) bo‘ylama chiziqlar bo‘linadi, bunda birinchi bo‘ylama chiziq maydon chetidan $\frac{-}{2} = 5 \div 10$ masofada yotadi. Bo‘ylama chiziqlar bilan interpolyatsiya (asl o‘lchov ishlari o‘tkazmay kerakli miqdorni topish usuli) izoliniyalarining mavjud gorizontallar bilan kesilgan joyi aniqlanadi va yer usti balandligi rejasiga yoziladi.

Loyihaviy gorizontallar balandliklari (izoliniyalar) barcha izoliniyalar nuqtalari (0,1 m aniqlikgacha) o‘rtacha arifmetik kattalik sifatida hisoblanadi.

Ma’lumotlar maxsus jadvalga yoziladi (7 – rasmga qarang).


Olingan izoliniyalar o‘rtacha balandliklarini sug‘orish yo‘nalishi bo‘yicha yuqorida pastga qarab qarash kerak. Normal sug‘orishni ta’minalash uchun keyingi izamigning o‘rtacha balandligi oldingisining o‘rtachasidan kichik bo‘lishi kerak, ya’ni xaritada nishablik to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Teskari nishabliklar topilganda ular qo‘sni izoliniyalar balandliklarini o‘zgartirish orqali yuqotilishi kerak, ya’ni joyning to‘g‘ri nishabliliga erishish zarur.

Qo‘sni izoliniyalar nuqtalar soni bir xil bo‘lganda balans sharti ushbu chiziqlar o‘rtacha balandliklarini o‘zgarmas kattalikka teskari ishorada o‘zgartirish orqali erishiladi. Agarda izoliniyadagi nuqtalar soni bir xil bo‘lmasa, o‘zgartirishni tenglik shartini saqlagan holda olib borish kerak, ya’ni

$$h_1 \cdot n_1 = h_2 \cdot n_2$$

Chek rejasi
M 1:1000



$$R_o = \frac{1662,57}{25} = 66,50; \quad H_{cp}^{a,n.} = 66,49; \quad H_{cp}^{n,n.} = 66,79; \quad 2R_o = 2 \cdot 66,50 = 133;$$

$$H_{cp}^{a,n.} + H_{cp}^{n,n.} = 133,28; \quad \Delta h = 133,0 - 133,28 = -0,28 \text{ см};$$

$$H_{np}^{a,n.} = H_{cp}^{a,n.} + \frac{3}{2} = 66,37; \quad H_{cp}^{a,n.} = H_{cp}^{n,n.} + \frac{3}{2} = 66,66;$$

$$H_{cp}^{a,n.} = 66,38; \quad H_{cp}^{n,n.} = 66,62; \quad H_{cp}^{a,n.} + H_{cp}^{n,n.} = 133; \quad \Delta h = 0;$$


$$H_{np}^{a,n.} = 66,38; \quad H_{np}^{n,n.} = 66,62; \quad W = \frac{1136 + 1188}{2} = 1162 \text{ м}^3;$$

$$W_{yo.} = \frac{W}{\omega} = \frac{1162}{400} = 2,9 \text{ м}^3; \quad I_{cp.} = \frac{l_1 \cdot W_1 + l_2 \cdot W_2 + l_3 \cdot W_3 + l_4 \cdot W_4}{W_1 + W_2 + W_3 + W_4} = 36,11 \text{ м};$$


Hisoblash jadvali

ΣΗ	H_{cp}	H_{np}		Δh, [м]		W, [м³]	
				-	+	-	+
1662,57	332,75	331,61	332,49				
	66,79	66,55	66,35	66,49			
			66,50				
				2,84	1,20	0,25	-
						0,34	1,05
						0,72	0,40
						136	420
						1188	224
							160
							288


Tekslashning ishchi sxemasi
M 1:1000



ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР



- түкма



- қирқишиш



- нулли иш

$$l_1 = 50 \text{ м}; \quad l_2 = 30 \text{ м};$$

$$l_3 = 20 \text{ м}; \quad l_4 = 37 \text{ м};$$

$$W_1 = 105 \text{ м}^3; \quad W_2 = 34 \text{ м}^3;$$

$$W_3 = 84 \text{ м}^3; \quad W_4 = 117 \text{ м}^3;$$

7-rasm. Topografik yuza bo'yicha tekislash.

bunda: n_1 – yuqori izoliniyadagi nuqtalar soni;

n_2 – quyi izoliniyadagi nuqtalar soni.

Izoliniyalarning o‘zgartirilgan va 1 sm gacha yaxlitlangan o‘rtacha balandliklari loyihaviy balandlik deb qabul qilinadi.

Qirqma va to‘kma qiymatlari izoliniyalar loyihaviy balandliklaridan joy (er) balandliklarini ayirish orqali topiladi. Qirqma yig‘indisi (Σh_{kirkma}) va to‘kma yig‘indisi (Σh_{tukma}) orasidagi farq $2 \div 3 \%$ dan oshmasligi kerak. Tekislash ishlarining hajmi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W = \frac{(\Sigma h_{\text{kirkma}} + \Sigma h_{\text{tukma}})}{200 \cdot n} \cdot \Omega$$

Bu yerda: W – maydon yuzasi, m^2

n – maydondagi nuqtalar soni.

Tuproqni tashish uzoqligini aniqlash uchun rejada qirqma va to‘kma maydonlari chegarasi o‘tkaziladi (ishlab chiqiladi). Bunda qirqma va to‘kma balandliklari $3 \div 5$ sm dan kichik bo‘lgan maydonlar nolinchi ish maydonlari deb qabul qilinadi. Tuproq tashishni o‘rtachalashtirilgan qiymati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$l_{\text{urtacha.tash}} = \frac{l_1 \cdot W_1 + l_2 \cdot W_2 + \dots + l_n \cdot W_n}{W_1 + W_2 + \dots + W_n}$$

Tekislash ishlarini ishlab chiqarish

Tekislash ishlarini ishlab chiqish texnologiyasi tayyorgarlik va asosiy larga bo‘linadi. Tayyorgarlik ishlariga yuzani yovvoyi o‘simgiliklardan tozalash, tekislash ishlari uchun maydonni bo‘lish, qirqma joylarni yumshatishlar kiradi.

Asosiy tekislash ishlariga quyidagilar kiradi: sug‘orish maydonlari yuzasini tekislash. Tekislash ishlarini ishlab chiqishning bir necha usullari qo‘llaniladi. Eng ko‘p tarqalgan usul bu tuproqni to‘liq qirquvchi «Quruq tekislash» bo‘lib, bunda joydagи

barcha balandliklar yumshatiladi va yushmoq tuproq to‘liq holda tekislovchi mashinalar yordamida qirqilib, past joylarga tashib tekislanadi.

Ish bajarish xarakteriga qarab barcha tekislovchi mashinalarni 2 – guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga qirquvchi va uzoq bo‘lmagan masofalarga tuproqni tashuvchi mashinalar kiradi. Ushbu guruhga kovsh hajmi turlicha bo‘lgan skreperlar kiradi. Skreperlarning ish unumdorligi kovsh hajmiga, yurish tezligiga va tuproqni tashish uzoqligiga bog‘liqdir. Skreperlarning 1 – smenadagi ish unumdorligi quyidagi jadvalda kursatilgan.

1-jadval

Skreperlarning 1-smenadagi ish unumdorligi, m³.

Tashish uzoqligi, m	<i>Skreper markasi va kovsh hajmi, m³</i>				
	<i>Kichik hajmli</i>		<i>O‘rta hajmli</i>	<i>Katta hajmli</i>	
	<i>D-217-1,5</i>	<i>D-183</i>		<i>D -213-10</i>	<i>D -188-15</i>
		<i>V-2,25</i>	<i>D -147 -6</i>		
30	225	-	-	-	-
50	180	270	450	-	-
75	150	210	396		
100	120	150	280	630	1600
200	-	-	170	400	1300

Ikkinci guruhga esa kovshga tuproq olmasdan va tashimasdan yuzani tekislovchi mashinalar kiradi. Bu mashinalarga greyderlar, buldozerlar, tekislovchi ramalar kiradi. Ushbu mashinalarning asosiy ish quroli bo‘lib, pichoq, otval yoki tubsiz kovshlar hisoblanadi. Bu mashinalarning ish unumdorligi, tuproqni surish uzoqligi va o‘tish soni bo‘yicha aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bagranov YU.G va boshqalar. «Rejasirovka oroshaem x zemel». M., 1964 g.
2. Axmedov X.A, Podgornov G.G., Xorst G.O., Sinyakin A.F. «Selskoxo-zyaystvenn e melioratsii». Uzglavizdat, 1959 g.
3. Podgornov G.G. «Qishloq xo‘jalik melioratsiyasi va suv ta’minoti». «O‘qituvchi», Toshkent, 1976 y.
4. Raximboyev F.M. «Gidrotexnikadan ruscha-o‘zbekcha qisqacha izoxli lug‘at». «O‘qituvchi», 1996 y.

Begmatov Ilxom Abduraimovich

Botirov Shavkat Choriyevich

«Qishloq xo‘jalik gidrotexnik melioratsiya» fanidan

«Yer yuzasini tekislash» bo‘yicha metodik ko‘rsatma

Muharrir:

M.Mustafayeva

Musahhih:

D.Almatova

Bosishga ruxsat etildi «___» _____ 2013 yil

Qog‘oz o‘lchami 60 x 84, 1/16, Hajmi 1,5 b.t. 12 nusxa

Buyurtma ____ TIMI bosmaxonasida chop etildi

Toshkent 100000, Qori-Niyoziy ko‘chasi, 39 uy.